

BADIY ASAR TILINING LINGVISTIK TAHLILI

Ahmadjonova Madinaxon

FarDu magistranti

M.Hakimov

FarDu professori

Anotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri lingvopoetikaning ayrim masalalari, badiiy asar tili va uning tahlili yuzasidan mulohazalar yuritilgan.

Badiiy asar tilining badiiy-estetik funksiyalarini tilshunoslik aspektida o'rganish muayyan asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchining so'z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullarini, tilga ijtimoiy ta'sirlarni tahlil qilish bugungi filologiyaning dolzarb vazifalaridan biridir.

Jahon tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab zamonaviy tilshunoslikning so'ngi ustuvor yo'nalishlari, xususan, lingvopoetika va uning vazifalarini tavsiflash ustuvor bo'lib kelmoqda. Badiiy matn, xususan, badiiy asarlar tilini o'rganish o'zbek tilshunosligida XX asrning 30-yillaridan boshlangan bo'lib, hozirgi kunda nafaqat tilshunoslikning, qolaversa adabiyotshunoslikning ham dolzarb masalalaridan biri bo'lmoqda. Tilning estetik funksiyasi badiiy asar matni orqali namoyon bo'ladi, shu sababli lingvistika, adabiyotshunoslik nazaryasi, tilshunoslik tarixi, adabiyot tarixi, poetika va lingvistik stilistika kabi fanlar o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Tilning estetik vazifalarini o'rganish tilshunoslik ham adabiyotshunoslikni ham ikki fan o'rtasidagi muammoga aylandi. Filologiya fanlar tizimida yangi soha badiiy asar tilining estetik vazifalarini namoyon bo'lishi sifatida o'rganadigan soha, „lingvopoetika“, „lingvistik poetika“ fani barqarorlashdi. Aslini olganda esa, lingvopoetika umumfilologik ahamiyatga ega bo'lib, shu o'rinda adabiyotni tildan, tildan adabiyotni ajratib bo'lmaydi.

„Adibning yozuvchilik nigohi qanchalik o'tkir bo'lmasin, tafakkur quvvati qancha baquvvat bo'lmasin, inson tabiatining sir-u asroridan qancha boxabar bo'lmasin, qalami o'tmas, uslubi to'mtoq, tili g'aliz bo'lsa, uning ezgu niyatlari qog'ozda qolib ketadi. Yozuvchi hayot haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy-ma'naviy muammolari haqidagi hukm va xulosalarni kitobxonga til orqali yetkazadi, ...so'z sehri bilan kitobxonga ta'sir ko'rsatib, uning fikriy dunyosi, ruhiy olamini harakatga keltiradi.“¹

Qolaversa badiiy tilni ana shu davr yoki umuman til taraqqiyoti tarkibidan ajratib bo'lmaydi. Zero, „yozuvchi hayotiy voqea-hodisalarni tasvirlab, obraz yaratar ekan, u so'zlashuv tili boyliklaridan, jonli tildagi sheva va kasb-hunarga oid til birliklaridan ham, adabiy til normalaridan ham keng foydalanadi“²

„Ma'lumki, nutqda insonning fikri bilan birga uning ruhiy olami ham o'z ifodasini topadi. Nutqdagi oshkora va yashirin ma'nolarni tadqiq qilish, insonning o'zligini nutqi orqali namoyon etishi kabi masalalarni o'rganish bugungi o'zbekona tafakkur tarsi, milliy mafkuar va milliy g'oya tushunchalarining mohiyatini ochishda muhim o'rin tutadi“³

Badiiy asar insonga zavq, hayajon, tuyg'u, armon, iztirob, baxt, umuman olganda fikr beradi. Aynan shu fikrni yetkazishda u bevosita til elementlaridan foydalanadi. Til va adabiyotning o'zaro bog'liqligi haqida adabiyotshunos olim O.Sharafiddinov o'zining

¹ Шарафиддинов О. Ҳақиқатга садоқат.- Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва Санъат нашриёти, 1989.- Б. 164.

² Зуннунов А., Хотамов Н. Адабиёт назариясидан қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 1978. Б.62.

³ Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари – Тошкент: Академнашр, 2013. Б.5

maqolasida bejizga : „, Rangsiz tasviriy san’at, ohangsiz musiqa bo’lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo’lmaydi”⁴ - deya juda chiroyli va real misollar orqali ochib bergan. Haqiqatan ham, paydo bo’lgan badiiy matn adabiyotning maxsuli, til esa unung materialidir. Biroq tildan har bir foydalanuvchi, ya’ni muallif o’z uslubiga, malakasiga ko’ra turlicha foydalangan holda uning o’ziga xos qirralarini namoyon qiladi. Bunday o’ziga xosliklar qanchalar ravon, mazmunli, sodda, ohangdor bo’lishiga ko’ra yozuvchi tilining qimmatini belgilanadi. Bunda esa badiiy matnning lingvistik tahlil qilishga ehtiyoj shundan boshlanadi.

Badiiy asar tilini tadqiq etish masalalarini rus tilshunosi L.V.Shcherba alohida muammo sifatida o’rgangan. Yana bir tilshunos olim A.Peshkovskiy ham badiiy asar tilini o’rganish yuzasidan tadqiqotlar olib borgan. O’zbek tilshunosligida esa badiiy asar tilini tadqiq etishda H.Doniyorov va B, Yo’ldoshevlarning „ Adabiy til va badiiy stil” nomli kitobi asos bo’ldi.⁵ Bundan keying yillarda esa bir qator doktorlik va nomzodlik ishlari olib borilib, muvaffaqiyatli himoya qilingan.

Keyingi yillarda ham o’zbek tilshunosligida badiiy matn tahlili masalalariga katta e’tibor berilib, sohaning yangi-yangi qirralari o’rganilmoqda. Bu o’rinda I.Qo’chqortoyev, Sh.Shoabdurahmonov, B.Yo’ldoshev, S.Karimov, I.Yoqubov, M.Yo’ldoshev kabi olimlarning ishlari bu boradagi keng qamrovli salmoqli ishlar sifatida ko’rsatib o’tish o’rinli⁶

Badiiy asar tili til imkoniyatlarini namoyon etar ekan, u „o’tmish hayoti bilan bog’liq bo’lib, har bir milliy adabiy tilining taraqqiyot qonuniyatlarini belgilab beradi va uning til tizimini, til qurilishi darajasini o’rganishga imkoniyat yaratadi”⁷

O’zbek tili ham o’z tarixida uzoq davr mobaynidagi taraqqiyot yo’lini bosib o’tgan. Taraqqiyotning turli davrlarida yaratilgan badiiy asarlar o’z navbatida tilning mavjud davrdagi ahvol va xususiyatlarini ko’rsatib turadi, tilning tadrijiy taraqqiyoti, sabablari, omillari haqida tadqiqotlar olib borish uchun faktik materiallar bo’lib xizmat qiladi. Hozirgi zamon o’zbek milliy adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyot bosqichiga ko’tarilish asoslarini ilmiy jihatdan o’rganish doimo o’zbek tilshunosligi oldida turgan birinchi galdagi eng muhim masalalaridan biri bo’lib kelmoqda. Buni xolisona va obyektiv ravishda hal etishda badiiy asarlar tilining lingvistik tadqiqi muhim ahamiyatga ega.

Badiiy asarlar va lingvopoetik tahlil jarayoni muayyan til darajasidagi barcha she’riy vositalarni o’rganishdan ko’ra faqat adabiyotshunoslikning she’riy darajasini qamrab oladi. Tilshunoslar yozuvchilarga qaraganda lingvopoetika poetikasi va tilshunosligi o’rtasidagi munosabatlarga ko’proq e’tibor berishadi. Lingvopoetika badiiy qurilmaning u yoki bu badiiy yoki she’riy qurilmaning o’zgarmas lingvopoetik xususiyatlarini kashf etadigan tipologik tadqiqotdir. Ushbu turdagi lingvopoetik tadqiqotlarni amalga oshirish uchun qurilma ta’sir funksiyasini bajaradigan lingvistik birlik bo’lishi kerak va u juda ko’p

⁴ Шарафиддинов О. Адабиёт тилдан бошланади. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1986, 5 сентябрь.

⁵ Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадийий стиль. –Тошкент: Фан, 1980. 159 б.

⁶ Қўчқортоев И. Бадийий нутқ стилистикаси. –Тошкент: Университет, 1975. Б 62-76.,, Шоабдурахмонов Ш. “Равшанхон” достонининг тил хусусиятлари. // Автореф. дисс. конд. Филол. Наук. –Тошкент, 1949, 18-с., Каримов С. Бадийий матннинг услубий воситалари. –Самарқанд, 1990, Б.28, Екубов И. Бадийий матн ва эстетик талкини.- Тошкент : Фан ва технология наширети ,2013. // М.Йулдашев.Бадийий матн ва унинг лингвопоетик тахлили асослари. - Тошкент,Фан,2007.-123 б.

⁷ Нормуродов Р. Шукур Холмирзаевнинг бадийий маҳорати. –Тошкент. 2003, Б.96.

sonli matnlarda muntazam ravishda ishlatilishi kerak. Lingvopoetik qarama-qarshilik tahlil qilinayotgan matnlarda ishlatiladigan stilistik jihatdan belgilangan lingvistik elementlarning nisbiy qiymatini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Usul mazmuni va rasmiy, funksional-stilistik xususiyatlari jihatidan o'xshash bo'lgan ikki yoki undan ortiq badiiy matnlarni taqqoslashga asoslangan.

Ma'lumki, badiiy asarlar adabiy til rivojining yorqin namunasi sifatida o'z davriga xos barcha lingvistik tahlillar olib borish, muhim xulosalar chiqarish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Мамажонов, М.Абдупаттоев. *Matn sintaksisi*, 2002, Toshkent, 43-b
2. J.Lapasov "Badiiy matn va lisoniy tahlil". Toshkent "O'qituvchi" 1995, 21-b
3. M.Yo'ldoshev. *Badiiy matnning lisoniy tahlili*, Toshkent, 2008, 46-b
4. *Matn lingvistikasi*. M.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyozova. Toshkent 2020, 112-b
5. Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. *Филол.фан.номз...дис.* -Тошкент,1993,7-б.
6. O.Sharafiddinov. *Adabiyot tildan boshlanadi*, 1992, Xalq so'zi, 2-b
7. Q.Abduraxmonov. *Adabiy asar tilini o'rganish to'g'risida*, Ma'rifat, 2012, 3-b